



SAID AHMADNING HAJVIY YO'NALISHDAGI ASARLARI UNING IJODI

Yusupova Shoxsanam G'anisher qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yozuvchi Said Ahmadning hajviy yo'nalishdagi asarlari uning ijodida qanday o'rinn egallaganligi xususida fikr yuritildi.*

Kalit so'zlar: *hajv, yo'nalish, ijod, hikoya, komediya, minatyura.*

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning hikoyalari, komediya va miniyaturlari xalqimiz qalbidan mustakam o'rinn egallagan.. Nafaqat xalqimiz qalbidan joy olgan, balki bu noyob asarlar adabiyotimiz xazinasini ham yetarlicha boyitadi.

Said Ahmadning tanqidchi N.V.Vladimirova bilan bo'lgan suhbati davomida u o'ziga ustoz deb bilgan ijodkorlar haqida so'z yuritganini ko'rishimiz mumkin. "Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor hikoyalari o'zbek hikoyasining taraqqiy etishida haqiqatan juda katta xizmat qildi. Abdulla Qodiriyning, ayniqsa, G'afur G'ulomning 30-yillarda yozgan hikoyalari menda katta taassurot qoldirgan. Shu hikoyalarning ko'plarini hozirgacha yoddan bilaman. Keyinchalik o'zbek hikoyachiligidagi hozirgi zamon rus hikoyachiligi bilan tenglashib keladigan darajada ixchamlidir. Ularning o'zlarini tutishlari, gapso'zlar, qiliqlari, xattoki orzu-istiklari ham tabiiy. Bu odamlar hayotlarida jinday yutuqqa erishishsa ham chin dildan quvonadilar, agarda ma'lum to'siqlarga duch kelishsa, qayg'urib, iztirob chekadilar. Shuning uchun bu qahramonlarning har bir harakatlari, u xoh hissiy bo'lsin, xoh jismoniy, tabiiy va ishonarli tuyiladi. Samimiylashtirish obrazlar Said Ahmad hikoyalarining o'ziga xos, betakror tarovatini ta'minlaydi. Ularni bugungi kun kitobxonasi uchun qadrli qiladi.

Ana shunday ulug' ijodkorlarning an'analarini davom ettirgan yozuvchi o'zining asarlarida inson obrazini mukammallashtiradi. Uning qahramonlari qandaydir shoirtabiat, murakkab emas, balki juda tabiiy va oddiy insonlardir. Ularning o'zlarini tutishlari, gapso'zlar, qiliqlari, xattoki orzu-istiklari ham tabiiy. Bu odamlar hayotlarida jinday yutuqqa erishishsa ham chin dildan quvonadilar, agarda ma'lum to'siqlarga duch kelishsa, qayg'urib, iztirob chekadilar. Shuning uchun bu qahramonlarning har bir harakatlari, u xoh hissiy bo'lsin, xoh jismoniy, tabiiy va ishonarli tuyiladi. Samimiylashtirish obrazlar Said Ahmad hikoyalarining o'ziga xos, betakror tarovatini ta'minlaydi. Ularni bugungi kun kitobxonasi uchun qadrli qiladi.

Adib dastavval hikoyanavis sifatida taniladi. Uning birinchi to'plami -1940-tilda "Tortiq" nomi bilan yuzaga keladi. Ijodini shunday boshlagan yozuvchining hikoyalari hajviy ruh asosiy o'ringa chiqdi. "Cho'l shamollari", "Cho'l burguti" kabi turkum hikoyalari, "Kukuchka", "Kolbasa qori", "Hindcha o'yin", "O'rik domla" kabi asarlari shular jumlasidandir. Ushbu hikoyalardagi obrazlar orqali yozuvchi xalqimizga xos bo'lgan betakror so'z o'yinlari, askiya va mubolag'alari asar tilini nihoyatda jozibador qiladi. Uning "Begona", "Mening do'stim Boboyev", "Xanka va Tanka" singari komediyalarida insonlar xarakterida uchrab turuvchi manmanlik, kibr-u havoga berilish, ig'vogarlik singari yomon illatlar mahorat bilan fosh etiladi.

Said Ahmad kichik hajviy asarlari bilan o'zbek radio va televideniyasida quvnoq miniyaturlar teatriga asos soldi. Adib bundan tashqari "Farmonbibi arazladi", "Kelinlar



qo'zg'oloni", "Kuyov" kabi komediyalari bilan ham katta shuhrat qozondi. Uning hajviyot bobidagi xizmatlari alohida e'tirofga sazovor. Chunki u ijodi davomida o'nlab hajviyot to'plamlarini e'lon qilib, o'zbek milliy hajviyotining chinakam ustasiga aylandi. Hozirgi kunda o'zini shu yo'naliш bo'yicha sinab ko'rmoqchi bo'lgan shoир yoki yozuvchi borki, ularning bari Said Ahmadni o'zlariga ustoz deb biladilar. Adibning "Xandon pista" to'plami uning hajvnavis sifatida mohir ekanligini yana bir bor isbotlaydi. U o'zining hajviy hikoyalarida rivojlanishimizga to'siq bo'layotgan yaramas urf-odatlar ustidan oshkora kuladi, ma'naviy masalalarni o'rtaga qo'yadi. "Lampa shisha", "Xanka va Tanka" singari o'nlab hikoyalari yuqoridagi fikr-mulohazalarimizning dalilidir.

Said Ahmad tabiatidagi lirik va humoristik hislat yozuvchining tasvir uslubiga, asarlariga ko'chgan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov yozuvchi haqida shunday fikrlar bildiradi: "Said Ahmad ijodiga nazar tashlaganda bir-biri bilan bog'liq ikki yo'naliшni ko'rish mumkin. Said Ahmad - ham lirik, ham humorist yozuvchi".

Hajviy asarlar asosan ikki xil yo'naliшda bo'ladi: Satira va Yumor. Satira so'zi yunonchadan olingan bo'lib, komiklik turi, tasvir obyektini ayovsizkulgi vositasi orqali anglash degani. U voqelikni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unda jamiyatdagi bema'ni, asossiz, noto'g'ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi. Voqealarning real ko'rinishini o'zgartirib, mubolag'a qilish, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko'pgina turlari yordamida yaratilgan obraz orqali satiric obrazga "ishlov" beriladi.

Yumorda esa yengil tanqid, hazil ruhi yetakchilik qiladi. Shu xususiyati bilan u satiradan farq qiladi. Badiiy adabiyotga mansub bunday asarlarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan ayrim odamlardagi ba'zi nuqsonlar ustidan kulib, uni tanqid qiladi. Satirada yumor unsuri bo'lganidek, yumorda ham satiraning unsurlari bor.

Said Ahmad har ikki yo'naliшda ham birdek qalam tabratgan. Uning "Qoplon" hikoyasi satiraning yetuk namunasi hisoblansa, "Sobiq" hikoyasi esa yumorga boy asardir. "Qoplon" hikoyasida kishilardagi hushomadgo'ylik, lagabardorlik, o'z manfaati yo'lida andishaga ham bormay surbetlarcha ish tutishi, kishilarni mansabiga qarab munosabat ko'rsatishi kabi illatlar tanqidi aks etgan. Bu hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o'zini hali tanimagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo'llarini topib olgan va o'zining lagabardorligidan orlanmaydigan, oriyatsiz bir shaxning qiyofasini ko'rsatib beradi.

Sobiq hikoyasida yozuvchi jamiyatimizda halol kishilarning xatti-harakatlarida paydo bo'layotgan dabdababozlik, nozarur yushmanlarga chalg'ib, kulgili vaziyatlarga tushib qolish kabi nuqsonlar ustidan yengil kuladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Said Ahmad. Saylanma, 3-jild. Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti. 2008
2. Said Ahmad. Kiprikda qolgan tong. -Toshkent, Sharq nashriyoti. 2008
3. Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. -Toshkent, Sharq nashriyoti. 2008

4. www.Google.uz.
5. www.ziyo.uz